



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASI

Musayev Abduvali Sulaymonovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Usbu maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarida komillik tushunchasi chuqur tahlil qilinadi. Xususan, Vatanga muhabbat, nafsni tiyish, takabburlikka qarshi kurash, oriflik va ma'rifatga intilish kabi g'oyalar hikmatlar misolida ochib beriladi. Komil inson g'oyasining bugungi jamiyat uchun ahamiyati, ma'naviy merosni avlodlarga yetkazish, ilmiy, vijdonli va bunyodkor yoshlarni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Komil inson, ma'naviyat, milliy istiqlol mafkurasi, Ahmad Yassaviy, hikmatlar, nafs, Vatanga muhabbat, axloqiy tarbiya, ma'rifat, haqiqat, ruhiy poklanish, ma'naviy meros.

ПОНЯТИЕ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ХИКМАТАХ АХМАДА ЯССАВИ

Мусаев Абдували Сулаймонович
Джизакский государственный педагогический университет, доцент

Аннотация

В данной статье подробно анализируется концепция совершенства в мудростях Ахмада Ясави. В частности, такие идеи, как любовь к Родине, самообладание, борьба с высокомерием, стремление к духовному прозрению и поиску знания, раскрываются через его хикматы. Подчеркивается значимость идеала совершенного человека для современного общества, необходимость передачи духовного наследия будущим поколениям, а также воспитания образованных, совестливых и созидательных молодых людей.

Ключевые слова: Совершенный человек, духовность, идеология национальной независимости, Ахмад Яссауи, хикматы, нафс, любовь к Родине, нравственное воспитание, просветление, истина, духовное очищение, духовное наследие.

THE CONCEPT OF THE PERFECT HUMAN IN THE HIKMATS OF AHMAD YASSAVI

Musayev Abduvali Sulaymonovich
Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor

Abstract

In this article, the concept of perfection (komillik) in Ahmad Yassavi's wisdom is thoroughly analyzed. In particular, ideas such as love for the homeland, self-restraint, the struggle against arrogance, the pursuit of spiritual insight, and the quest for knowledge are revealed through his hikmats. The importance of the ideal of the perfect human in today's society, the need to transmit spiritual heritage to future generations, and the necessity of educating knowledgeable, conscientious, and creative youth are emphasized.

Keywords: Perfect human being, spirituality, the ideology of national independence, Ahmad Yassawi, wisdoms, the self, love for the Motherland, moral education, enlightenment, truth, spiritual purification, spiritual heritage.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirib, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir insonning yagona Vatan baxti-saodati uchun doimo ma'sulyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlool mafkurasining bosh maqsadidir.

“Komil inson ilm mazxaridir, komil inson ilohiy zot sifatlarining ham mazxaridir”.

Shunday ekan, komil inson yetti narsaga narsaga ishonish bilan iymonli kishilar safiga kiradi, - deydi prof. B.O'rinboyev. Bular, 1. Yetuk hikmat va qonuniyat asosida qurilgan olam va uning ichida har biri alohida olam bo'lgan insonni yaratgan azaliy va abadiy zot ollohga ishonish. 2. Olam jumlasidan bo'lgan ko'zga ko'rinmas ruhiy mavjudot – farishtalar borligiga ishonish. 3. Kitoblariga ishonish. 4. Payg'ambarlarga ishonish. 5. Qayta tirilishga ishonish. 6. Ishlash va imtihon dunyosidagi qisqa hayot, jazo va mukofot uyudagi abadiy hayotga ishonish. 7. Taqdirga ishonish.

Bu insoniy intilishlarda millatimizning barkamol avlod haqidagi orzu-umidlari o'z aksini topgan. Komil insonlar – jamiyatdagi ilg'or qatlamdir. O'zbek xalqi o'z madaniyatida va ma'naviyatida komil insonlarning voyaga yetishiga katta e'tibor berganlar. Buning natijasida asrlar davomida aql-zakovatga ega bo'lgan Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Yassaviy kabi komil insonlar yashab o'tishdi, yolg'on so'zlamaydi, rostgo'y bo'ladi. Chin inson boshqalarga hech bir ozor yetkazmaydi, yolg'on so'zlamaydi, rostgo'y bo'ladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida komillikning asosiy belgilari – vatanga muhabbat, nafsni tiyish, nodonlik, bilimli bo'lish, yaxshilik kabi fikrlarini tahlil qilamiz:

1. Ahmad Yassaviy hikmatlarida Vatan madhi:

Boshim tufrog', o'zim tufrog', jismim tufrog',
Haq vaslig'a yetarmen deb ruhim mushtoq.
Kuydim, yondim, bo'lolmadim hargiz ofoq,
Shabnam bo'lib yer ostiga kirdim ma'no.

Vatan haqidagi falsafiy fikrlar Ahmad Yassaviy hikmatlaridan boshlanadi. Tuproq duosi – Vatan duosidir. Baytning ikkinchi qatoridagi “Haq” vasli – Vatan diydori sog'inchdagi komil qalbning ruh mushtoqligidir. Vatanparvarlik havoyi so'z emas, Vatanni anglash, tuproq tilini bilishdir.

2. Nafsni taslim etishga bag'ishlangan hikmatlar:

Nafs yo'liga kirg'on kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldin ozib, to'yib, to'zib gumroh bo'lur,
Yotsa, qopsa shayton bilan hamroh bo'lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Ahmad Yassaviy nafsqa va taslim qilishga qarata aytgab falsafiy fikrlari boshqacha. Inson hayotidagi eng katta kurashlaridan biri, nafsni taslim etishdagi kurashdir deydi. Nafsqa mag'lub shoh – qul, nafsdan yengan inson g'arib – shohdir. Nafsni yengan kishining g'ururi baland va insoniy qadr – qimmatini hech kim poymol qila olmaydi.

Bu hikmatda shoir shuning uchun nafsni tiya olmaganlarga qarata shunday deydi: “Nafsni tepkil, nafsni tebgil, ey badkirdor”, deb aytgan.

Nafsim meni yo'ldin urib xor ayladi,
Telmultirib xaloyiqqa zor ayladi.
Zikr aytdirmay shayton birla yor ayladi,
Hozir san deb nafs boshini yanchdim ma'no.

Ushbu hikmatda ham nafs uchun “itdan kezib yurganlarni”, qattiq tanqid qilib

ayamaydi.

Xullas, nafs haqidagi Yassaviyning xulosalari shuki, har bir insonda bo'ladigan nafs - ishki, lekin juda katta dushmandir deydi. Undan tashqari insondagi butunlikni sidiradi, ma'naviy asoyishtasini buzadi.

3. Yassaviy hikmatlaridagi "takabburlik" haqida:

Bedorlarga Haq rahmati bo'lur yovuq,
Bedorlarni ko'ngli siniq, ko'zi yoshliq.
Manmanlikni jazosini bergay tomuq,
Takabburni do'zax ichra holi dushvor.
O'n ichimda nafs havoni qo'lga oldim,
Nafs boshig'a yuzning balo qamrab soldim.
Takabburni yerga urib bosib oldim,
O'n to'rtimda tufroqsifat bo'ldim ma'no.

Yuqoridagi hikmatlarda Yassaviy takabburlikka qarshi o'z falsafasi sifatida foydalangan. Hikmatlarida takabburlik – adolatning yovi, takabburlik yo'llaridan saxovat chiroqlari ochadi deydi. Podsho va amaldorlarning adolatsizliklari, saxovatining hayotiga qattiq ziyon yetkazadi, deydi.

4. Yassaviy hikmatlarida oriflik haqida fikrlari:

Tariqatdur bu yo'l otin bilsa darvesh,
Ma'rifatni mato'idin olsa darvesh.
O'zga yo'llar bori havo sonsa darvesh,
Ma'rifatni maydonida er ul bo'lur.
Tolibman deb ayturlar ko'nglida yo'q zarra sho'r,
Chin tolibni so'rsangiz, ichi – toshu gavhar, dur.
Haqqa ayon sirlari, aytishlari safo nur,
Arslon bobom so'zlarin eshitingiz, tabarruk.

Orif – irfon sohibi. Tom ma'nodagi haqshunos. So'fiylarning tushunchasida ilm – aqlga, irfon – tuyg'ularga asoslanadi. Orif bo'lmoq uchun kitobiy bilimlardan behad yuksalmoq kerak.

Uningcha, haqiqat yurakda. Haqiqat – Ruh, Borliq, olam bilan ruhan uyg'unlikka kirishish – oliy saodat. Saodat – ma'rifat nurlaridan ong va dilni tiniqlashtirish. Shoir o'z mavjudligini ruh va ruhiy hayotdagi o'zgarishlar, to'lg'anishlar, yuksalishlar orqali idrok qilmoqni xohlaydi.

Ahmad Yassaviy o'z o'rnida "Haqiqatni ma'nosiga yetkan kishi, behad bo'lib kuyub yonar ichi toshi", deydi. Yuqoridagi hikmatlarda orif qullar – jondin kechib "haqni jonga qo'shib, daryo bo'lib" toshganlar. Ularning "ichi toshli" "haq umriga" to'la. Shuning uchun ham ularning ko'ngli yorug', nazari ochiq.

Ahmad Yassaviy islom dinining qonun-qoidalarini va urf-odatlarining yig'indisi bo'lgan "shariat"ni tasavvuf maslagi bo'lgan "tariqat"ni, ishq ilohiyini – "ma'rifat"ni xudo va unga erishmoqni – "haqiqat"ni zo'r berib targ'ib qiladi.

Agar diqqat bilan tahlil qilinsa, Ahmad Yassaviyning diniy-axloqiy falsafasida dunyoni to'g'ri anglashga o'rgatadi. Komil inson bo'lish uchun uning asosiy belgilari yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik illatlarini yurakdan quvishga da'vat etadi.

So'fiylikdagi "komil inson tushunchasi ilohiylik va insoniylik tabassumning mukammal va oliy darajasi, odamlarning olamni butunlikda, azim uyg'unlikda ko'rish orzu-xayollari, kamolot mash'ali bo'lish barobarida aniq shaxslar, valiyulloh insonlar rutbasini tan olish va qonunlashtirish hamdir. Chunki komil inson barcha ilmlardan, zoxiriy va botiniy donishdan boxabar, qalbida g'ayb asrori jo'sh urib turgan zot deb bilingan".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizni qurshab turgan olamni asrab-avaylashga, boy milliy-ma'naviy merosimizni avlodlarga yetkazish uchun ota-bobolarimiz e'tiqotidini bilish, komillikni asosiy belgilarini qunt bilan o'rganishimiz kerak bo'ladi. Butun jahon ma'rifati va madaniyatiga hissa qo'sha oladigan, bilimli, teran fikrli, vijdonli, tafakkuri keng, bunyodkor maqsadli, komil insonlarni yetkazib berishdan iborat..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Komilov N. Majmuddin Kubro. Toshkent, 1995.
2. O'rinboyev B. So'fizm atamaları lug'ati. Samarqand, 1998.
3. Ahmad Yasaviy hikmatlari. Toshkent, 1990.
4. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976.
5. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchi R.Abdushukurov. Toshkent, 1992.